




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shıyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushılyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

NORIN SHEVASINING AYRIM FONETIK XUSUSIYATLARI

CERTAIN PHONETIC CHARACTERISTICS OF THE NARIN DIALECT

Sarvinoz XUDOYBERDIYEVA,

ToshDO'TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/JHV6644

Annotation. *This article examines the phonetic and phonological features of the Norin dialect. The study analyzes the vowel and consonant systems of the Norin Kipchak and Karluk dialects. Particular attention is given to vowel harmony, positional changes of consonants, and the pronunciation characteristics of sounds in different phonetic environments. The article also provides a detailed discussion of the differences between the “ž” dialects and the “j” dialects.*

Key words: *dialect, dialect group, Norin dialect, phonetics, karluk dialect group, kipchak dialect group, vowel, consonant.*

Norin shevasi fonetik-fonologik sathida o'n birinchi asrda qo'llangan ayrim nutq tovushlari batamom evolutsion o'zgarishga uchramagan. Hamon tovushlar tizimidagi aynanliklar va o'zgarishlar kuzatiladi. Ularni quyidagicha bayon qilamiz: Norin shevasi fonetik jihatdan o'zining murakkab xususiyatlariga egadir. O'zbek shevalari o'zaro unli va undoshlarning miqdori, sifati, fonetik jarayonlari bilan farqlansa-da, ayrim jihatlari orqali o'xshash hamdir. Ta'kidlanganidek hudud ikki: qarluq-chigil-uyg'ur va qipchoq lahjadan tashkil topgan bo'lib, ularning fonetik jihatdan ham har birining o'ziga xos tomonlari bor. Shevada farqli tomonlarning mavjudligi u tarqalgan hududning joylashuv o'ri, tarixiy sharoitlari, aholi etnik tarkibining turliligiga bog'liq. Shu bois ham Norin shevalarida unli va undoshlarning miqdori va sifati barcha o'zbek shevalari kabidir. Shu o'rinda aytish joizki, o'zbek shevalarini areal yo'nalishda o'rganish orqali bunday masalalar o'z yechimini topishi mumkin.

Har bir turkiy til lug'at tarkibini tashkil etuvchi umumxarakterga ega bo'lgan so'zlar turkiy tillarning barchasi uchun umumiy-mushtarak bo'lgani singari o'zbek tili hamda o'zbek xalq shevalarining ham o'ziniki bo'lgan so'zlardir. Turkiy tillarda muayyan so'zlarning o'xshashligi bu lisoniy birlik bir tildan ikkinchisiga o'tganligini anglatmaydi. Turkiy tillardagi o'xshashlikning muayyan sabablari bor, ya'ni turkiy tillarning aslida bir manbaga, bir genetik asosga ega ekanidan, ularning lug'at jamg'armasi qadimda yagona bo'lganligidir.

Norin shevasida ishlatiladigan ko'plab so'zlar tarixda yirik nufusni tashkil qilgan qipchoqlarga aloqador bo'lsa, qarluq tip shevalarda ishlatiladigan ko'plab so'zlar qarluq va uyg'ur tiliga yaqinligidan dalolat beradi. Aslida ham shunday. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda o'zbek xalqi orasida saqlangan juda ko'plab urug'-qabila nomlari boshqa ayrim turkiy xalqlar o'rtasida ham uchraydi. Bularning barchasi turkiy xalqlarning aksariyati o'zaro qondosh-qarindosh etnik guruhlar majmuasidan iborat ekanligidir. Shu bois ham turkiy tillar orasidagi yaqinlik, o'xshashlikning mavjud bo'lishi tabiiy.

Norin shevasida unli tovushlar tarkibi to'g'risida fikr bildirilganda, sohadagi ilmiy tadqiqot natijalariga tayaniladi.

Qarluq lahjasida 6 tadan 11 tagacha unli mavjud. Unlilar uyg'unligi yoki ohangdoshlik hodisalari uchramaydigan qarluq lahjasida oltita: *i, e, ā, ä, o, u*; Haqqulobodda yetti: *i, e, ā, ä, u, o-ö* unli fonemalari mavjud. Singarmonizmli qipchoq shevalarining “ž” lovchi va “j” lovchi guruhlarida o'nta: *a-ä, ā, e, ĭ, i, ö-o, u-ü*.

O'zbek shevalarida unli tovushlar miqdor jihatdan teng bo'lsa-da, ayrim unlilarning talaffuzida farqlar bor. Masalan, Toshkent shevasining lablanmagan keng unlisi (*ä*) old qator unli bo'lsa, Namangan, Samarqand, Navoiy shahar va Buxoro shevalarida *a* unlisi old va orqa qator

unlilarga nisbatan oraliq tovushdir (*ä-a-a*). Qarluq lahjasida *ä* unlisi old qator, lablanmagan keng unli tovushdir: *älmä, änhär, änjil, änychä, bähär* kabi.

Har bir turkiy til lug'at tarkibini tashkil etuvchi umumxarakterga ega bo'lgan so'zlar turkiy tillarning barchasi uchun umumiy-mushtarak bo'lgani singari o'zbek tili hamda o'zbek xalq shevalarining ham o'ziniki bo'lgan so'zlardir. Turkiy tillarda muayyan so'zlarning o'xshashligi bu lisoniy birlik bir tildan ikkinchisiga o'tganligini anglatmaydi. Turkiy tillardagi o'xshashlikning muayyan sabablari bor, ya'ni turkiy tillarning aslida bir manbaga, bir genetik asosga ega ekanidan, ularning lug'at jamg'armasi qadimda yagona bo'lganligidir.

Norin shevasida mo'g'ulcha, xitoycha so'zlar ham uchraydi. Mo'g'ul tiliga oid so'zlarning o'zbek tili va shevalariga kirib kelishi XIII asr, ya'ni Chingizxon yurishlari davriga to'g'ri keladi. Ayniqsa, XIV-XV asrlarda O'rta Osiyoga, jumladan, Farg'ona vodiysi mo'g'ul qabilalarining (jaloir, barlos, qovchin, arlat, alchin, ming, mang'it, nayman va hokazo) ko'chib kelishi kuchaygan. Ularning ko'pchiligi turkiylashgan bo'lib, ayrimlari hatto turk tilini o'zining ona tili deb hisoblaydilar. XV asrda mo'g'ul qabilalari o'zlarini chig'atoy deb nomlaganlar va asta-sekin o'troq dehqonchilik xo'jaligiga o'ta boshlaganlar.

Norin qipchoq shevalarida ham quyidagi undoshlar jarangli va jarangsiz belgilariga ko'ra korrelyativ juftliklar hisoblanadi: *b – p*: [*bānā*] yaqinda, avval – [*pānā*] pona, *s – z*: [*sāmā*://*sāmān*] somon – [*zāmān*] zamon, *ch – j*: [*chīnī*] chinini – [*žīnī*] asabi (jini qo'zimoq), *q – g*: [*yārām*] g'aram – [*qārām*] qaram, *d – t*: [*dārām*] daromat – [*tārām*] taram kabi.

Norin shevasida undoshlar o'zining korrelyativ belgilarini, asosan, so'z boshida saqlab qoladi va kuchli pozitsiyaga ega bo'ladi. Masalan: [*bāv*] bog', [*bāvliq*] bog'lik, [*pāllāpān*] polopon kabi so'zlarda so'z boshidagi *b* va *p* undoshlari kuchli pozitsiyada bo'lsa, [*kāvāp*] kabob, [*sāvāp*] savob, [*kitāpim*//*kitōvim*] kitobim, [*surōvi*] surobi, [*sāvi*] sopi, [*tāvīp*] topib kabi so'zlarda intervokal holatda *b* va *p* undoshlari kuchsiz pozitsiyada bo'ladi.

Adabiy tilda jarangli va jarangsiz belgisiga ko'ra korrelyativ munosabatga ega bo'lmagan *h*, *y*, *m*, *n*, *l*, *r* kabi undosh fonemalar juftlikka kirmaydigan undoshlar hisoblanadi. Norin qipchoq shevalarida ham boshqa shevalardagi kabi fonemalarning turli fakultativ variantlari o'zaro juftlik hosil qilib, ma'noga ta'sir etmagan holda almashib kela oladi. Masalan, *s – h*: [*enāhi*] onasi; *sh – h*: [*āhānāqā*] mana shunday, *ch – h*: o'zlashmalarda [*hāvdiš*] choyjo'sh, qumg'on kabi.

Shevadagi *x* va *h* hamda *ŋ* (*ng*) undoshlari o'zbek adabiy tilidagi shu undoshlardan hosil bo'lish o'rni, artikulyatsion-akustik jihatdan yumshoq va qattiqligi bilan birmuncha farq qiladi.

A) adabiy tildagidek chuqur til orqa undoshi *x* va bo'g'iz undoshi *h* fonologik asosiga ko'ra ma'no farqlamaydi. Mazkur areal shevalarida bu ikki undoshning muhim belgisi yo'q: [*dara*://*dārāh(h)*//*dārāq*] daraxt, [*hīllānān*] xillangan, [*hil-hil*] hil-hil kabi *x* undoshining chuqur til orqalik belgisi to'laligicha *h* bo'g'iz undoshiga o'tgan;

b) so'zning turli o'rinlarida talaffuz qulayligiga erishish harakati va maqsadi sababli so'z boshida o'zlashmalarda *h* tovushi [*hi*] va [*hū*] tarzida, so'zning boshqa pozitsiyalarida asliday almashtirilib qo'llanadi:

– olinma so'zlarda so'z boshida qo'llanadi: [*histāžj*] staj, [*histādiyōn*] stadion, [*histānōk*] stanok, [*histikān*] stakan, [*hūstūden*], student, [*hāptābis*//*hāptālābūs*] avtobus, so'z o'rtasida: [*māhinā*] mashina kabi;

Hudud shevalarida so'z oxiridagi [*sh*] va [*ch*] o'rnida [*h*] undoshining qo'llanishi kuzatilmaydi.

2. *ŋ* (*ng*) undoshi: a) qipchoq shevalarida chuqur va sayoz til orqa undoshi bo'lib, uning qadimiy qattiqlik va yumshoqlik belgisi saqlanib qolgan. Uning bu belgisi ayrim so'zlardagina qadimgi turkiy til unsurlari qoldig'i sifatida ma'no farqlaydi: [*numānā*] nega, nima sababdan – maqsad, [*nūmānā*] nimaga – predmet, [*nūmā:ŋ*] kimning – egalik, [*nūmā(vi)ŋ*] nimang – tegishlilik; b) arealning sharqiy guruh qipchoq-qoraqalpoq, shimoliy va markaziy qipchoq sheva guruhlarida yumshoqlik belgisi uslubiy ma'nolarni yuzalantiradi: [*bārī:ŋ*] boring (iltimos, yalinish), [*bārīŋ*] boring (buyruq), [*bārīŋnār*//*bārīŋlār*] boringlar (ko'plikda: iltimos, yalinish) kabi; v) *ŋ* (*ng*) -a so'roq-taajjub yuklamasidan keyin kelib, o'zidan kattaga hurmat ma'nosini ifodalaydi: [*bārāsiz*]

ä:ŋ] borasz-a(ng)?, [uyimiz-ä:ŋ] uyimiz-a(ng) kabi; g) Namangan shahar tip shevalarida bunday xususiyat kuzatilmaydi: [bāri:] boring, [ālīŋ] oling, [qōlūŋ] qo'ling kabi, Farg'ona tip shevalarida yumshoq (sayoz til orqa) varianti [bāriŋ] boring, [ālīŋ] – oling, o'zlashmalarda: [sumkāŋ] sumkang kabi qo'llanadi.

3. Namangan shahriga yaqinlashgan sari “ž”lashish yo‘qolib boradi, biroq Namangan shahar shevasiga ham “j”lovchi guruh shevasi o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Namangan shahrida *yurmoq* fe’li [žūr] tarzida qo’llanadi: [žūrūna] yuringlar, [žūr kettū:] yur ketdik kabi; “Y”lovchilarga ham bu holat o‘z ta’sirini o‘tkazgan: [žūn] yung, [žümā-žümā] yuma-yuma, [žirilib] yirilib; matoning sitilishi, [žiyilgān] (mijig‘langan ~ g‘ijimlangan: distant metateza), [žōy] yo‘ymoq kabi. Bizningcha, bunday fonetik jarayonning yuzaga kelishi Norin shevasi vakillari va viloyatning barcha aholisi bir-birlari bilan qadimdan uzviy iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy aloqada bo‘lganligidan dalolat beradi.

4. Shevaning qarluq lahjalarida Namangan shahar tip hamda Farg'ona va Andijon tip qarluq shevalarida umumo'zbek qarluq tip shevalaridagi sayoz til orqa, portlovchi, jarangsiz [k] undoshining so‘z oxirida til o‘rta, sirg‘aluvchi, jarangli [j] undoshga almashinishi: [terāj] terak, [kerāj] kerak, [etij] etik kabi kuzatiladi.

Norin shevalari undoshlar tarkibi qarluq shevalarida 23 ta tovushdan; qipchoq shevalarida 21 ta tovushdan iborat.

“ž”lovchi qipchoq shevalarida *b* undoshi hamma vaqt ham *p* hamda *v* undoshiga o‘zgarmaydi, so‘zning oxirgi o‘rinlarida ham o‘zining kuchli pozitsiyasini saqlab qoladi: [kitābim] kitobim, [ādābi] odobi, [sābābi] sababi kabi. “J”lovchilarda kuchsiz pozitsiyaga o‘tadi: [kitāpim, ādāpi, sāvāpi] kabi. Qiyoslang: [qūrbaqa//qurvāqā], [qabaq//qāvaq//qāvāq], [dārbāza//dārvāzā] darvoza, [tārbüz//tārvīs//tāryīs] tarvuz, [ishqibāz//ishqivās] ishqiboz, [bārābār//bārāvār] barobar, so‘zlarda lab-lab varianti qo’llanadi: [wōwīllādi] vovulladi, [wāj] voy, [wāh] voh, [sūw] suv, [kūwi] kuva, [wārillā] varillamoq, [wāpāt] vafot etmoq, [wāpā] vafo, [wāzipa] vazifa; so‘z o‘rtasi va oxirida: [ōwhāl] ahvol, [ōwlāt] avlod, [ōwliyā] avliyo, [ārwiis] avroz kabi qo’llansa, o‘zlashma so‘zlarda *p* ga almashadi: [āptāmābil] avtomobil, [āptābūs//hāptālābūs] avtobus, [āptāmāt]. Harakat nomlarida *v* ning tushishi natijasida undan oldingi unli fonematik bo‘lmagan cho‘ziqlikka ega bo‘lib qoladi: [kechū:] kechuv, [yāzu:] yozuv, [chāqirū:] chaqiruv kabi. Biroq –(u)v bilan yasalgan marosim otlarida esa *v* saqlanadi: [chāqirūv] chaqirdi, [ātkizūv] aytkizuv, [tāllāv] tanlov, [yohlāv] yo‘qlov kabi; b) sandhi holatda har ikki guruhda ham ravishdosh va sifatdoshga *edi* to‘liqsiz fe’li qo‘shilsa, *b>v* ga o‘tadi yoki unlining cho‘zilishi hisobiga tushib qoladi: [kōrūdīk//kōru:dīk] ko‘rib edik, ko‘rgan edik, [bārūvdīm// bāru:dīm] borib edim, borgan edim, [ōtirūvdīm// ōtirū:dīm] o‘tirib edim, o‘tirgan edim kabi.

P – lab-lab, portlovchi, jarangsiz undosh. Qarluq lahjasida ham, qipchoq lahjasining “ž”lovchilarida ham, “j”lovchilarida ham talaffuzda, boshqa o‘zbek shevalarida bo‘lganidek, artikulyatsion o‘rniga ko‘ra farq qilmaydi: a) so‘zning istalgan pozitsiyasida, boshida, oxirida va o‘rtasida kela oladi: [pālāpān//pālāpān] qushning bolasi, [söpāq] cho‘zinchoq, [tālīp] toliqmoq, [pālāv] palov, [tōppā//tōppāk] to‘plangan uyum, [pāqir] paqir, [kōpik] ko‘pik, [sāp] omonim: ketmonning sopi, sof, toza, qo‘ldan ketgan, ushalmagan, [jip] ip, [ipiltirīq] nimjon, oriq kabi; b) Norin shevasida *p* undoshining muayyan fonetik pozitsiyada qo‘llanilishi arealning qipchoq lahjasining ikkala guruhida turlicha. “ž”lovchilarda: [āppārip per] olib borib ber, [keppöldi] kelib bo‘ldi, [it qābwāldi] it qopib oldi kabi *b* ni *p* ga, [sābi ūzūn] sopi uzun (ketmon), [tābbi] tappi kabi *p* ning *b* ga o‘tishi kuzatiladi. “ž”lovchi shevalarga nisbatan “j”lovchi shevalarda so‘zning o‘rtasida *p* undoshi turg‘un; v) *p* ning *v* ga almashinishi undoshlar taraqqiyotining mahsuli sifatida amal qiladi. Ko‘plab turkiy tillardagidek, Norin shevasida ham *chop*, *top*, *yop*, *sep*, *tep* tipidagi *p* bilan tugagan bir bo‘g‘inli fe’llar [chōv, tōv, yōv, sōv, tōv] kabi *p* undoshi o‘rnida *v* talaffuz etiladi. Bu esa qipchoq shevalaridagi fonema variantlarining talaffuzda qulaylikka erishish uchun yuzaga kelgan hodisadir.

F – Norin shevasida undosh fonema sifatida yo‘q. So‘zning qaysi pozitsiyasida bo‘lishidan qat’i nazar o‘zlashtirilgan so‘zlardagi *f* undoshi *p* holida talaffuz etiladi: [permā] ferma, [permer]

fermer, [pärtik] fartuk, [apsis] afsus, [āptāv] oftob, [tilpān] telefon, [yūsüp] Yusuf, [mä:rip] Ma'ruf, [ishikāp] shkaf kabi.

Т – til oldi, jarangsiz, portlovchi undosh. So'zning istalgan bo'g'inida keladi. Talaffuziga ko'ra, Norin shevalar areali guruhlarida farq qilmaydi: [terit] uy hayvonlariga beriladigan ozuqa, [tez] omonim: sifat, ravish, [ter] omonim: ot, fe'l, [tekkis] omonim: sifat, fe'l [tirinkā] metall idish-tovoq, [kättä] katta, [ätäynä] ataylab, [ättär] attor, [süt] omofon: sud//sut, [düt] tutun – dud kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг қипчоқ шеvasи (Наманган область Янгикўрғон район материаллари асосида). Филол. Фан. ... номз. Дисс. – Тошкент, 1955. – 212 б.
2. Алиев А.Ю. Наманган диалекти ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 37-45.
3. Алиев А.Ю. Намангская группа говоров узбекского языка: Автореф. Дисс. ... д-ра филол. Наук. – Тошкент, 1975. – 52 с.
4. Алиев А. Ўзбек диалектологиясидан материаллар (Наманган шевалари). – Тошкент: Фан, 1974. – 220 б.
5. Атамирзаева С. Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1974. – 196 с.
6. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.
7. Боровков А.К. Узбекский говоры Наманганской области. – Ташкент, Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент, 1963. – С. 3-39.
8. Дарвишов И. Ареал тилшунослик: Жануби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 147 б.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.

